UO‘K 394

O‘ZBEKISTON QIRG‘IZLARIDA DEHQONCHILIK XO‘JALIGINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

O.A. Abduraupov

Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududlarida yashagan qirg‘izlarda dehqonchilik madaniyatining paydo bo‘lishi va shakllanish tarixi o‘rganilgan. Tarixiy manbalar va adabiyotlarda qirg‘izlarda dehqonchilikning dastavval lalmi (bahorgi) shakli, keyinchalik esa asta-sekin sug‘orma dehqonchilik shakllanganligi haqida faktik ma’lumotlar keltirilgan. O‘troqlashib dehqonchilikka o‘tgan yoki o‘tayotgan qirg‘izlar o‘troq dehqon aholi tomonidan ishlatib kelinayotgan dehqonchilik qurollaridan foydalanishni o‘rganganlar.

Kalit so‘zlar: *dehqonchilik, lalmi, chorvador, yarimo’troq, tabiiy-geografik sharoit, etnoxo‘jalik, etnos, ko‘chmanchi madaniyat, etnomadaniy muhit, sun’iy sug‘orish, etnografik guruh, g‘alla ekinlari, o‘troqlashuv, yerga ishlov berish.*

В статье описывается история возникновения и становления земледельческой культуры у кыргызов, проживавших на территориях современного Узбекистана в конце XIX – начале XX века. В исторических источниках и литературе приводятся фактические сведения о первоначальной богарной (весенней) форме земледелия у кыргызов, а затем о постепенном формировании орошаемого земледелия. Кыргызы, осевшие или переходящие к сельскому хозяйству, научились использовать сельскохозяйственные орудия, используемые оседлым дехканским населением.

Ключевые слова: *земледелие, богарный, скотоводство, полуоседлый, природно-географические условия, этноэкономика, этнос, кочевая культура, этнокультурная среда, искусственное орошение, этнографическая* группа, зерновые культуры, расселение, обработка почвы.

Ilmiy adabiyotlarda qirg‘izlarda dehqonchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi haqida ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Mavzuga oid manbalarning aksariyatida qirg‘izlarning qadimdan ma’lum darajada don yetishtirganliklari, ularning taomnomasida go‘sht va sut mahsulotlari bilan birga bug‘doydan tayyorlangan oziq-ovqatlar katta ahamiyatga ega bo‘lganligi haqida ma’lumot berilgan. XVII–XVIII asrlarda Farg‘ona vodiysi bilan tutash ayrim hududlarda qirg‘izlar lalmi (bahorgi) dehqonchilik bilan birga sug‘orma dehqonchilik bilan ham shug‘ullanganliklari, ekin maydonlari uchun ariqlar qaziganliklari ilmiy ishlarda qayd qilingan [1. B. 25].

Tadqiqotlarda dehqonchilikning ikki turi ajratib ko‘rsatiladi: sug‘orma dehqonchilik va lalmi (bahorgi) dehqonchilik. Sug‘orma dehqonchilikning paydo bo‘lishi qadim davrga borib taqaladi. Sug‘orma dehqonchilik kishilar tomonidan barpo etilgan turli xil suv inshootlari yordamida ekin maydonlarini sug‘orish bilan xarakterlanadi. Lalmi dehqonchilik uchun esa hech qanday sun’iy sug‘orish tizimini qurish shart bo‘lmaydi, ekin maydonlarini sug‘orish uchun tabiiy yog‘inlar (qor, yomg‘ir)ning o‘zi yetarli bo‘lgan. Ya’ni lalmikor (bahorgi) ekin maydonlariga aholi urug‘ sepish va hosilni yig‘ib olish uchungina kelgan. Boshqacha aytganda, lalmikor maydonlaridagi ekin muntazam parvarish talab qilmagan.

Tog‘, tog‘oldi hamda adirga yaqin joylashgan dehqonchilik vohalari atrofidagi ayrim etnografik guruhlar, xususan, qirg‘iz urug‘lari chorvachilik xo‘jaligini yuritish bilan birga lalmikor yerlarda boshoqli ekinlarning ayrim turlarini yetishtirganlar. Lalmi yerlardan foydalanib, boshoqli ekinlar yetishtirish bilan ko‘proq o‘troqlashayotgan qirg‘izlar va shu atrofda chorvasini boqib yurgan boshqa yarimko‘chmanchi, yarimo‘troq (qipchoq, turk, yuz, qoraqalpoq kabi) etnoslar shug‘ullangan. Ular bu joylarda asosan tariq, arpa, bug‘doy singari boshoqli ekinlarni yetishtirganlar.

XIX asr oxirida o‘troqlikka o‘tayotgan yoki batamom o‘tgan azaliy chorvador xalqlar, jumladan, qirg‘izlar ko‘proq don mahsulotlarini yetishtirish bilan shug‘ullana boshlaganlar. Tadqiqotchi A.Kun o‘zining “Qo‘qon xonligi ocherki” nomli asarida: “Ular yarim-o‘troq holda turmush kechiradilar, yaqin kelajakda butunlay o‘troqlashadilar” [2. B. 62], deb yozgan edi.

Alohida ta’kidlash joizki, hozirgi O‘zbekiston va unga tutash hududlarda joylashgan qirg‘izlarning ajdodlari qadimdan chorvachilik bilan birga tabiiy-geografik sharoit va imkoniyatlardan kelib chiqib,

dehqonchilikning ayrim sohalari bilan shug‘ullanib kelganlar.

Qirg‘izlarning dehqonchilik madaniyati o‘zbek va tojik xalqlarining dehqonchilik madaniyati bilan ko‘p jihatdan umumiylikka ega. Mazkur holat ushbu etnoslarning umumiy etnomadaniy muhitda yashaganliklari va ular bilan o‘zaro etnoxo‘jalik aloqalarida bo‘lganliklari natijasi, deb hisoblash mumkin. To‘g‘ri, qirg‘iz etnosi xo‘jaligida chorvachilik asrlar davomida ustuvor ahamiyat kasb etganligini aytib o‘tish lozim, lekin ayni vaqtda shuni ham e’tibordan qochirmaslik kerakki, asrlar davomida o‘troq madaniyat ko‘chmanchi madaniyat bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, bir-biriga ta’sir ko‘rsatib kelgan. Qolaversa, bunday etnomadaniy aloqalar natijasida azaliy ko‘chmanchi chorvador etnoslarda uzluksiz ravishda o‘troqlashish jarayoni yuz bergan. Shubhasiz, bu qirg‘iz etnosi uchun ham xos jarayondir.

Chorvador xalqlarda dehqonchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga mahalliy o‘troq aholining ta’siri katta bo‘lgan. Masalan, tadqiqotchi A.S.Bejkovich 1928-yilda qirg‘izlarning keksa avlod vakillaridan yozib olingan quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “...qirg‘izlar hali ekin-tikin bilan shug‘ullanmagan, juda qadim zamonlarda bir qirg‘iz piyoda, tog‘lar oshib Andijonga boradi va bu yerda Farg‘ona dehqonlaridan tariq ekishni, sug‘orishni, o‘rish va yanchishni o‘rganadi. O‘shandan buyon qirg‘izlar tariq ekadilar hamda undan bo‘tqa va bo‘za tayyorlaydilar” [3. B. 32–69].

Chorvador etnik jamoalarda o‘troqlashuv jarayoni jadallashishi natijasida ular ko‘proq dehqonchilik bilan shug‘ullanishga o‘ta bordilar. Tadqiqotchi Ch.Valixonov o‘z asarida qirg‘izlarning *adigen* urug‘i XVIII asrning o‘rtalaridayoq Marg‘ilon va O‘sh shaharlari atroflaridagi yerlarda dehqonchilik qilib, g‘alla yetishtirganliklarini aytib o‘tgan [4. B. 422].

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlariga kelib chorvachilik uchun foydalaniladigan yaylov va o‘tloqlarning qisqarishi chorvador xalqlar, xususan, qirg‘izlarning o‘troqlashuv jarayonini yanada tezlashtirdi. Ularning ekin maydonlari sezilarli darajada kengaydi. Dehqonchilik o‘troqlashgan mahalliy qirg‘izlarning xo‘jaligida asosiy o‘rinlarni egallay boshladi.

Farg‘ona vodiysida yashovchi o‘zbek va qirg‘izlar o‘rtasidagi o‘zaro etnik munosabatlar, xususan, xo‘jalik aloqalari qizg‘in kechgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib, azaliy chorvador aholining ko‘proq o‘troqlashishga o‘tishi, mahalliy turg‘un aholi bilan har jihatdan qo‘shilib ketish jarayoni yanada jadallashdi. Vodiydan farq qilgan holda, voha, xususan, Jizzax qirg‘izlarida o‘troqlashuv jarayoni XX asrning boshlaridan boshlanib, asr o‘rtalariga qadar davom etadi. Natijada nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy jihatdan ham yaxlit bir hududga aylangan vodiy aholisi singari Jizzax qirg‘izlari hayotida ham dehqonchilik xo‘jaligi bilan chorvachilik xo‘jaligi o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamlanib borishi, bir-biriga bog‘liqligining ortib borishi bu davrda yanada muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘sha davrga oid statistik ma’lumotlarda XIX asrning 90-yillarida Farg‘ona viloyatida istiqomat qilayotgan qirg‘izlarning 200 ming nafari yoki 65%i o‘troqlashgan bo‘lib, ularning xo‘jaligida dehqonchilik muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi ko‘rsatib o‘tilgan [5. B. 45–56]. Etnograf S.S.Gubayevaning ta’kidlashicha, 1880–1892-yillar davomida O‘sh uyezdidagi 2791 nafar qirg‘iz o‘troqlashgan [6. B. 76–77]. Boshqa bir manbada, ushbu uyezdda yashovchi 300 ming qirg‘izdan 200 ming nafari bu davrda o‘troqlikka o‘tganligi qayd qilingan [6. B. 74]. 1913-yil ma’lumotlariga ko‘ra, qirg‘izlarda daromadning 41%i chorvachilikdan, 38%i dehqonchilikdan, qolgan 20%i esa boshqa tarmoqlardan olingan [7. B. 30]. Jizzax viloyatining Zomin va Baxmal tumanidagi qirg‘izlarda ham o‘troqlashuv jarayoni XX asrning boshlarida ancha jadal tus olgan.

Qirg‘izlar o‘troqlashar ekanlar, imkon darajasida suv manbalari mavjud hududlarga yaqin joylashishga harakat qilganlar. Ular aksariyat hollarda daryo va boshqa suv havzalarining qirg‘oqlariga, buloqlar atrofiga joylashganlar, ushbu suv manbalaridan o‘zlarining uncha katta bo‘lmagan ekin maydonlarini sug‘orishda foydalanganlar.

Bu davrda Farg‘ona vodiysida o‘troqlikka o‘tgan qirg‘izlarning bir qator don yetishtiruvchi hududlari tashkil topdi. Masalan, Andijon uyezdiga qarashli Moylisuv, Qo‘g‘orot, Chonkent hamda Marg‘ilon uyezdiga qarashli Noyg‘ut-Qipchoq, Namangan uyezdiga qarashli Qutluq-Said volostlari shular jumlasidandir. Natijada bu joylarda o‘troq qirg‘izlarning qishloqlari paydo bo‘ldi. Masalan, etnograf U.S.Abdullayevning ko‘rsatib o‘tishicha, bu davrda Farg‘ona vodiysi hududida qirg‘izlar g‘uj joylashgan Qorabuloq, To‘qqizbuloq, Saribuloq, Qizilbuloq kabi aholi manzilgohlari shu tarzda tashkil topgan [8. B. 81].

Jizzax viloyatining Tojikiston bilan chegaradosh hududidagi Turkiston tizma tog‘larida yashovchi qirg‘izlar o‘troqlashish jarayonida, Farg‘ona vodiysida bo‘lgani kabi, suvga serob hududlarga kelib o‘rnasha boshlaganlar. Natijada ushbu hududlarda ularning qishloqlari paydo bo‘lib, asta-sekin dehqonchilik xo‘jaliklari tashkil topgan. Masalan, Baxmal tumanida yashovchi qirg‘izlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston tizma tog‘idan oqib keluvchi Sangzor daryosining ikki qirg‘og‘ida o‘z qishloqlarini barpo qilganlar. Xususan, Sangzor daryosining shimoliy

qismida 12 ta, janubiy tomonida esa 3 ta qishloq o‘troqlashgan qirg‘izlar tomonidan tashkil qilingan [9].

XX asrning ikkinchi yarmidan O‘zbekistondagi cho‘l hududlarini o‘zlashtirish boshlanishi natijasida qirg‘iz oilalari ham (asosan, Jizzaxning hozirgi Zomin va Baxmal tumanlaridan) Mirzacho‘l hududlariga ko‘chib borib o‘rnashadilar. Bu yerdagi qurilishlarda ishlash bilan birga o‘z chorvasini boqish bilan shug‘ullanganlar. Paxtachilik va g‘allachilikning kengayishi natijasida qirg‘izlarning chorvasi kamayib, dehqonchilik bilan shug‘ullana boshlaganlar. Oqibatda Jizzax va Sirdaryoga qarashli cho‘l hududlarida tashkil etilgan sovxozlarda qirg‘iz dehqonlarining soni ortib bordi [10].

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, hozirgi Jizzax viloyati hududida yashagan qirg‘iz chorvadorlarining dehqonchiligi Farg‘ona vodiysidagi qirg‘izlarning dehqonchiligidan o‘ziga xos tomonlari bilan birmuncha farq qilgan. Bundagi o‘ziga xos jihatlar shundaki, jizzaxlik qirg‘izlarning dehqonchilik uchun o‘zlashtirgan ekin maydonlari ushbu hududning tog‘li joylaridan o‘tuvchi daryolar qirg‘oqlarida bo‘lib, ular asosan lalmi dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Sun’iy sug‘orishda esa ko‘llama (ko‘llatib sug‘orish) usuli keng qo‘llanilgan [11].

Qadimdan dehqonchilik madaniyati rivojlangan Farg‘ona vodiysida esa asosan sug‘orma dehqonchilik ustuvor bo‘lgan. Aholining asosiy ekin maydonlari tekislik va adiroldi hududlarida joylashgan edi. Bir so‘z bilan aytganda har ikki mintaqa aholisida dehqonchilik madaniyatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi ko‘p jihatdan hududning relyefi, iqlimi va suv resurslariga bog‘liq bo‘lgan.

Ekin maydonlarining kengayib borishi yangi sug‘orish inshootlarini (ariq va kanallarni) qazishni taqozo qilgan. Qirg‘izlar ham sug‘orma dehqonchilik bilan kengroq shug‘ullanib, yangi ariqlar chiqarganlar. Shu o‘rinda aytib o‘tish o‘rinliki, hozirgi Marhamat, Jalolquduq va Qo‘rg‘ontepa tumanlari hududida XIX asr boshlarida qirg‘izlar tomonidan yangi ariqlar qazib chiqarilib, dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun yerlar o‘zlashtirildi. Shuningdek, hozirgi Namangan viloyatiga qarashli Kosonsoy daryosining yuqori qismida Sufon, Arsip, Mo‘yan kabi ariqlar o‘troqlashgan qirg‘izlar tomonidan qazilganligi bir qator manbalarda qayd etilgan [12. B. 29].

O‘troqlashgan qirg‘iz xo‘jaliklarida dehqonchilik rivojlanib borayotganligini ular tomonidan yetishtirilayotgan qishloq xo‘jalik ekinlarining turlari kengayib borayotganligida kuzatish mumkin. Endilikda qirg‘izlar bug‘doy, tariq, arpa singari boshoqli ekinlar bilan birga makkajo‘xori, sholi, qo‘noq, jo‘xori, zig‘ir, tamaki kabi qishloq xo‘jalik ekinlarini ham turli miqdorda yetishtira boshlaganlar. O‘troqlikka batamom o‘tgan, dehqonchilik xo‘jaligining asosiy tarmog‘iga aylangan ayrim qirg‘izlarning tomorqalarida bir necha turdagi poliz ekinlari (qovun, tarvuz, piyoz, sabzi) ham oz miqdorda ekila boshlandi [13. B. 140].

Qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan qirg‘izlarda dehqonchilik xo‘jaligining tashkil topishida, yuqorida aytib o‘tganimizdek, o‘troq o‘zbeklarning ta’siri katta bo‘lgan. Yerga ishlov berish, ekin ekish, uni parvarishlash, hosilni yig‘ib olish va uni saqlash kabi dehqonchilik tajribalarini qirg‘izlar o‘troq o‘zbeklardan o‘zlashtirib olganlar. Shuningdek, o‘troq o‘zbek dehqonlari ishlatadigan mehnat qurollari qirg‘izlar tomonidan o‘zlashtirilib foydalanilishi ham har ikki etnosning xo‘jalik aloqalarini ko‘rsatib beruvchi muhim jihat hisoblanadi.

Dehqonchilikda yerga ishlov berishda ikki muhim usuldan foydalanilgan. Birinchi usulda, asosan, hosildan bo‘shagan ekin maydonlariga ma’lum muddat dam berilgan, ikkinchi usulda esa ekin maydoni shudgor qilingan. Har ikki usul O‘zbekistonning turli joylarida turli nomlar bilan yuritilgan. Chunonchi, Farg‘ona vodiysining So‘x tumanida yerga dam berish usuli “dam dodan”, yerni shudgorlash usuli esa “qora shudgor” deb yuritilgan [14. B. 51–52]. Shudgorlash ishlari quyosh taqvimi bo‘yicha hamal oyi kirib kelishi bilan boshlangan bo‘lib, hozirgi oy taqvimi bo‘yicha bu 21-martdan 21-aprelgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Birinchi usul, ya’ni yerga dam berish usuli XIX asr oxiri – XX asr boshiga kelib hozirgi O‘zbekiston va unga tutash hududlarda asta-sekin o‘z ahamiyatini yo‘qota borgan. Bunday yerlarni yil davomida haydalmay qoldirish, ya’ni dam berish holati ko‘proq suv kam bo‘lgan yillari yoki shudgorlash uchun imkoniyat bo‘lmay qolganda yuz bergan [15. B. 27]. Dam berilgan yerlar begona o‘tlardan tozalanmagan. Yovvoyi tarzda o‘sadigan o‘simliklar kelgusi mavsumda ekiladigan ekinlar uchun tabiiy o‘g‘it vazifasini bajargan.

Ekin maydonlari tuproqning xususiyati va ekilishi lozim bo‘lgan ekin turiga qarab shudgor qilingan. Masalan, sug‘orib bug‘doy va arpa ekiladigan dala maydonlari bir necha, hatto 8–12 marotaba qayta-qayta shudgor qilingan. Sug‘orilmay dehqonchilik qilinadigan lalmi yerlar esa faqat bir-ikki marotaba shudgor qilingan, xolos.

O‘tmishda chorvachilik bilan shug‘ullangan, o‘troqlashib dehqonchilikka o‘tgan yoki o‘tayotgan etnoslar, jumladan, O‘zbekistonda yashovchi qirg‘izlar o‘troq dehqonlar tomonidan ishlatib kelinayotgan dehqonchilik qurollaridan foydalanishni o‘rganganlar. Xususan, yerga ishlov berishda omoch, mola, ketmon, hosilni yig‘ib olish uchun o‘roq, ayri, beshilik (panshaxa), yog‘och kuraklardan foydalanganlar.

Farg‘onalik qirg‘izlar tomonidan yerga ishlov berishda va hosilni yig‘ib olishda qo‘llaniladigan mehnat qurollari Jizzax va Sirdaryo qirg‘izlarining mehnat qurollari bilan deyarli bir xil bo‘lgan. Shu bilan birga ushbu dehqonchilik qurollari, tayyorlanish usuli va nomlanishi bilan ayrim hududiy xususiyatlarga ega.

Yerga ishlov berishda qo‘llaniladigan asosiy mehnat qurollaridan biri omoch hisoblanadi. Omoch O‘rta Osiyo xalqlarida keng tarqalgan va o‘zining qadimiy tarixiga ega. Ilmiy adabiyotlarda omochning qadimiy turlari haqida bir qancha ma’lumotlar berilgan [3. B. 114–142; 16. B. 42–46]. Shuningdek, omochni tayyorlash va uning hududiy xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar ko‘plab tadqiqotchilarning ishlaridan o‘rin olgan [8. B. 57].

Omoch tuzilishiga ko‘ra uch qismdan – toq ustun, tik ustun va omoch tishidan iborat. Bu uch qismning o‘zaro birlashtirilishi natijasida bir butun omoch yasalgan. Omoch qirg‘izlarda “buursun” deb nomlangan. Janubiy qirg‘izlar uni “omoch”, tojiklar “isfar” deb nomlagan. Omoch qirg‘izlarda azaldan bo‘lganligi haqida tarixiy manbalar mavjud. 1953-yilda Chuy vodiysida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari vaqtida archa daraxtidan yasalgan, VIII asrga oid bo‘lgan omochga o‘xshash dehqonchilik quroli topilgan [17. B. 202–204].

Dehqonchilik qurollarining turli mintaqalarda tarqalishi avvalo ushbu joyning relyefi, tuprog‘i, iqlimi va shu kabi tabiiy shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lgan. Ekin maydonlarini shudgorlashda ishlatiladigan asosiy dehqonchilik quroli – omochlar O‘zbekistonning barcha aholisida “etnik mansubligidan qat’i nazar bir xil tuzilishga ega bo‘lgan, faqat katta-kichikligi bilan bir-biridan ajralib turgan. Uning qaysi o‘lchamdagisidan foydalanish esa shudgor qilinadigan yerning xususiyati va omochga qo‘shiladigan ishchi hayvonning turiga bog‘liq bo‘lgan” [5. B. 39].

O‘zbekistonning dehqonchilik vohalarida sug‘orib ekiladigan yerlarni shudgor qilish uchun hajmi kattaroq va og‘irroq bo‘lgan omochlardan foydalanilgan, tog‘ va tog‘oldi hududlardagi bahorikor yerlar esa o‘lchami kichik, vazni yengil bo‘lgan omochlar yordamida shudgorlangan. B.S.Gamburg “XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragi Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasi dehqonlari mehnat qurollari xususiyatlariga doir” nomli asarida bu yerlarda qo‘llaniladigan omochlarga taxminan 3 kg og‘irlikda, qalinroq qilib quyilgan omoch tishi o‘rnatilganligi haqida ma’lumot bergan [18. B. 121].

Dehqonchilik vohalarida ishlatiladigan nisbatan katta hajmdagi omoch turlari o‘troqlashgan qirg‘izlar tomonidan ham foydalanilgan. Dala etnografik tadqiqotlari davrida ma’lum bo‘ldiki, azaliy o‘troq o‘zbek va tojiklar tomonidan ishlatilib kelinayotgan bunday katta hajmdagi omochlar o‘troqlikka o‘tgan qirg‘izlar tomonidan o‘zlashtirilgan [19]. Shuningdek, mahalliy dehqon jamoalarining mehnat qurollari shakllanishiga ruslar ham ta’sir qilgan. Tadqiqotchi D.Aytmanbetovning asarida keltirilishicha, O‘sh, Skobelev va Qo‘qon uyezdlaridagi qirg‘iz dehqon xo‘jaliklarida 105 ta temir plug borligi aniqlangan. Ularning aksariyati rus posyolkalariga yaqin joylashgan Gulcha va Qurshob volostlaridagi dehqonlarga tegishli bo‘lgan [7. B. 30].

V.P.Nalivkin Namangan uyezdi aholisining dehqonchiligiga oid asarida mahalliy dehqonlarning ish qurollariga to‘xtalib, o‘zbek, tojik, qirg‘izlarning bunday mehnat qurollarida, jumladan, omochlarda ham tafovut yo‘q ekanligi xususida yozgan [20. B. 25].

An’anaviy dehqonchilik qurollari orasida eng ko‘p ishlatiladigan mehnat quroli ketmon hisoblanadi. O‘zbekistonning turli hududlarida dehqonlar bajaradigan ishning turi va tuproq tuzilishiga qarab bir necha shakldagi ketmonlardan foydalanilgan. Dehqonchilik bilan shug‘ullanishga o‘tgan qirg‘izlar ushbu dehqonchilik qurolini aksariyat hollarda o‘troq hunarmand temirchilardan xarid qilganlar. Ketmonning turi, tuzilishi va tayyorlash usuli haqida ilmiy asarlarda ma’lumotlar ko‘p uchraydi [15. B. 63–64].

Shudgorlangan ekin maydoni mola yordamida tekislanib, urug‘ sepish uchun tayyorlangan. Bunda asosan ikki xil mola ishlatilgan: six mola va yog‘och mola. Six mola Markaziy Osiyoning barcha dehqonchilik vohalarida Rossiya imperiyasi istilosidan keyin tarqala boshlagan. Qirg‘izlar ham ushbu moladan foydalanganlar. O‘zbekistonlik qirg‘izlar molaning ushbu turini mahalliy o‘troq aholidan o‘zlashtirganlar [5. B. 43].

Ekin maydonlari shudgorlangach, uni tekislash hamda sepilgan urug‘ni tuproq bilan ko‘mish uchun molaning yana bir turi – shox moladan foydalanilgan. Nomidan ham ko‘rinib turibdiki, ushbu moslama daraxt shoxlarini xodaga bog‘lash yo‘li bilan juda sodda tarzda tayyorlangan. Shox mola ko‘proq lalmi yerlarda ishlatilgan. Undan qirg‘izlar ham ekin maydonlarini tayyorlashda foydalanganlar va u qirg‘izlarda “*shak mala*” deb atalgan [21. B. 104].

Mahalliy aholida yerga urug‘ qadashning, ya’ni sepishning asosan ikki usuli qo‘llanilgan. Birinchi usul – ekin maydoni bo‘ylab yurib, dalaga urug‘ sepish, ikkinchi usul – ot ustida o‘tirib urug‘ sepish. Ekin maydoniga urug‘ sepishning birinchi usuli ko‘proq azaliy o‘troq dehqonlar tomonidan qo‘llanilgan bo‘lsa, ikkinchi usulni esa tog‘ va tog‘oldi hududlarida lalmi dehqonchilik bilan shug‘ullangan yarimo‘troq etnoslar, jumladan, qirg‘izlar qo‘llaganlar.

Keksa axborotchilarning ta’kidlashlaricha, XX asr boshlariga kelib qirg‘izlarda ot ustida o‘tirib urug‘

sepish kam qo‘llanilgan [22]. Yerga urug‘ qadashda mahalliy dehqonlar urug‘ni bosh kiyimi yoki choponning etagiga solib yurganlar. Bosh kiyim yoki chopon etagiga urug‘ solib sepish ancha qulay bo‘lgan. Qirg‘iz dehqonlari har ikkala usulni o‘zlashtira borganlar. Shuning bilan birga, ular teridan yasalgan xalta – *torbo*ga urug‘ solib, ekin maydonlariga sepish usulini ham qo‘llaganlar [18. B. 50].

Shuningdek, o‘troqlashgan qirg‘izlar ekin maydonlarini o‘g‘it bilan oziqlantirishga dastlab kam e’tibor qaratganlar. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ular o‘troq o‘zbek, tojik dehqonlari ta’sirida unumdorlik va hosildorlikni oshirish uchun tuproqni tabiiy o‘g‘itlar bilan oziqlantirishga kirishdilar.

Dala etnografik materiallari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, dehqonchilik vohalariga yaqin joylashgan qirg‘iz dehqonlari ekin maydonlariga egat (jo‘yak) olish, pol ko‘tarish, suv tarash kabilarni mahalliy o‘troq dehqonlardan o‘zlashtirganlar [23].

Qirg‘izlar O‘rta Osiyoning barcha aholisi kabi hosilni asosan o‘roq yordamida yig‘ishtirib olganlar. S.M.Abramzonning ko‘rsatishicha, qirg‘izlar ikki xil o‘roqdan foydalanganlar: birinchi ko‘rinishdagisi “*ko‘rgo‘z oroq*”, “*kol oroq*” deb nomlangan, ikkinchisi “*mangel*” deyilgan [21. B. 104]. “Mangel” deb nomlangan o‘roq turi qirg‘izlarga o‘zbeklardan o‘tgan. Buni ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar tasdiqlaydi. Chunonchi, tadqiqotchi A.S.Bejkovichning “Qirg‘iz qishloq xo‘jaligining tarixiy-etnografik xususiyatlari” nomli maqolasida quyidagi ma’lumot keltirilgan: “Qirg‘izlarning aytishicha, o‘roq ularda bundan 90–100 yil muqaddam paydo bo‘lgan va u mahalliy o‘zbeklardan o‘tgan” [3. B. 58].

Qirg‘izlar kichik ekin maydonidagi hosil (bug‘doy yoki arpa) boshog‘ini oddiy pichoq bilan kesib olganlar yoki tomiri bilan yulib olganlar. Bu usul nafaqat qirg‘izlarda, balki ekin maydoni katta bo‘lmagan boshqa dehqon jamoalarida ham uchragan. Xullas, yetilgan hosilni yig‘ib olish usuli O‘zbekiston hududidagi xalqlarda deyarli bir xil bo‘lgan.

Qirg‘izlar boshoqli hosilni dastlab ekin maydonining o‘zida uncha katta bo‘lmagan bog‘lamlar shaklida to‘plaganlar yoki yanchib olish uchun mo‘ljallangan xirmonga birdaniga bog‘lamasdan olib chiqqanlar. Hosilni yanchib olishning ham bir necha usulidan foydalanganlar. Birinchi usulda maydonga doira shaklida yoyilgan hosilni uy hayvonlari (ot, tuya, ho‘kiz) yordamida yanchib olingan, ikkinchi usulda daraxt shoxlaridan tayyorlangan, “*val*” deb nomlanuvchi moslama yordamida hosil yig‘ishtirib olingan. Qirg‘izlar hayvonlar yordamida hosilni yanchib olish usuliga nisbatan “*temin basuu*”, “*kirman basto‘ruu*” (xirmon bostirish) yoki “*paykan*” atamalarini qo‘llaydilar [24. B. 90–91].

Vodiy qirg‘izlari hosilni yanchishda “*tosh mola*” deb nomlangan moslamadan foydalanganlar. Ushbu molaning asosiy qismi ohak va qumdan tayyorlangan bo‘lib, silindr shaklida olti yoki sakkiz qirrali ishlangan, uzunligi 55–60 sm, diametri 30–40 sm bo‘lgan. A.S.Bejkevichning yozishicha, bu moslama qirg‘izlarga sharqdan, uyg‘urlar tomonidan, shimoldan esa ukrain emigrantlari tomonidan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida kirib kelgan. Bularning bir-biridan farqi bo‘lib, ukrain tosh molasi ko‘pincha olti qirrali bo‘lib, tosh ichidan o‘tgan o‘q ustiga to‘rtburchak (kvadrat) holatida yog‘ochdan moslama o‘rnatilgan. Bunday tosh molalar bu davrda O‘zbekistonning ayrim tog‘oldi hududlarida yashovchi qirg‘izlarda keng tarqalgan [3. B. 64; 24. B. 105].

Hosilni yanchib olishning yana bir usuli borki, u “*to‘qmoqlash*” usuli deyiladi. Bu usuldan aksariyat hollarda kam hosil yig‘ib olgan yoki yanchib olish uchun uy hayvonlari bo‘lmagan aholi qatlami, jumladan, kambag‘al qirg‘izlar foydalanganlar.

Yanchilgan bug‘doy, sholi va boshoqli don ekinlarini somon yoki poxoldan ajratib olish uchun barcha etnik jamoalarda yog‘och kurak, ayri, beshlik (panshaxa), g‘alvir kabi mehnat qurollaridan keng foydalanilgan. G‘alvir doira shaklida bir necha o‘lchamda tayyorlanib, to‘rlarining keng yoki torligi bilan bir-biridan farq qilgan.

G‘alvir asosan O‘rta Osiyolik lo‘lilar tomonidan tayyorlanib, bozorda sotilgan. U dehqonchilik xo‘jaligi uchun o‘ta zarur ro‘zg‘or anjomi hisoblangan. Lo‘lilarning turli guruhlari hosil yanchilayotgan xirmonlarga kelib, shu joyning o‘zida g‘alvirlarni g‘allaga ayirboshlaganlar [25. B. 77].

Arxeologik materiallardan ma’lumki, mintaqa aholisi o‘tmishda mavjud don mahsulotlarini ikki xil usulda saqlaganlar. Birinchi usul – o‘ralarda saqlash, ikkinchi usul esa maxsus tayyorlangan sopol xumlarda saqlash. Dala etnografik tadqiqotlari davrida aniqlandiki, o‘troqlikka o‘tgan ayrim qirg‘iz urug‘lari don mahsulotlarini teridan tayyorlangan idishlarda saqlaganlar [26].

O‘zbekiston hududida joylashgan azaliy chorvador xalqlarda o‘troqlashish jarayonining kuchayib borishi natijasida ular faqat boshoqli ekin yetishtirish bilan shug‘ullanib qolmay, ko‘proq poliz ekinlarini ekish, hatto paxta yetishtirish bilan ham shug‘ullana boshlaganlar. XIX asrning oxiriga tegishli manbalarda qirg‘izlar yashagan yettita volostda 11 ming desyatina yerda paxta yetishtirilgan [7. B. 30]. 1908-yilga kelib, Marg‘ilon uyezdining Nayman va Yaukesek volostlaridagi qirg‘izlar 140 desyatina yerga, Andijon uyezdining Bozorqo‘rg‘on, Qorasuv, Moylisoy, Qo‘ng‘irot volostlaridagi qirg‘izlar esa 1685 desyatina maydonga chigit ekishgan [27. B. 59–61].

Mahalliy qirg‘izlarning dehqonchilik bilan ko‘proq shug‘ullanishi ularda pul-tovar munosabatlarining shakllanishiga, shu bilan birga savdo-sotiqning yanada rivojlanishiga olib keldi. Ular tomonidan yetishtirilgan ayrim dehqonchilik mahsulotlari tovar xususiyatiga ega bo‘lib, bozorga chiqariladigan bo‘ldi. XX asr boshlariga kelib mahalliy dehqonlar kabi qirg‘iz dehqonlari ham o‘z ehtiyojlaridan ortiqcha bo‘lgan g‘allani bozorlarda sota boshladilar. Masalan, o‘sha davr manbalarida qayd qilinishicha, Namangan uyezdi Bago‘sh, Saro‘su, Bayastan volostlarida yashagan qirg‘izlar bug‘doyni Zarkent bozorida sotganlar [28. B. 113].

Shuni ta’kidlash o‘rinliki, bu davrda mahalliy qirg‘izlar bozorlarga olib chiqayotgan mahsulotlarning asosiy qismini hanuz chorvachilik mahsulotlari tashkil qilgan.

Xullas, qirg‘izlarda dehqonchilik madaniyatining paydo bo‘lishi va shakllanishi o‘z tarixiga ega. Tarixiy manba va adabiyotlarda qirg‘izlarda dehqonchilikning dastavval lalmi (bahori) shakli, keyinchalik esa asta-sekin sug‘orma dehqonchilik shakllanganligi haqida faktik ma’lumotlar keltirilgan.

Qirg‘izlar o‘troqlashar ekanlar, mahalliy azaliy o‘troq aholidan dehqonchilik xo‘jaligini yuritishga oid ko‘plab bilim va tajribalarni o‘zlashtira borganlar.

Adabiyotlar:

1. *Наливкин В.П.* Краткая истории Кокандского ханства. – Казань, 1886. – 215 с.
2. *Кун А.Л.* Очерк Кокандского ханства // В кн.: Известия Императорского Русского географического общества. Т. XII, отдел 2. 1876. – Санкт-Петербург, 1877. – С. 63-74.
3. *Бежкович А.С*. Историко-этнографические особенности киргизского земледелия // В кн.: Очерки по истории хозяйства народов Средней Азии и Казахстана. – Л., 1973. – С. 32–70.
4. *Валиханов Ч*. Собрание сочинений: В 5-ти томах. / Отв. ред. А.Х.Маргулан и др. Т. I. – Алма-Ата: Казахская *советская энциклопедия*, 1985. – 416 с.
5. *Абдуллаев У.С*. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX – XX аср бошлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – 216 б.
6. *Губаева С.С.* Население Ферганской долины в конце XIX – начале XX в. (этнокультурные процессы). – Ташкент: Фан, 1991. – 130 с.
7. *Айтманбетов Д.* Культура киргизского народа во второй половине XIX – начале XX века. – Фрунзе: Илим, 1967. – 310 с.
8. *Абдуллаев У.С.* Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX – XX аср бошлари): Тарих фан. докт. ...дисс. – Тошкент, 2006. – 334 б.
9. Dala yozuvlari. Yigitov Azam. Jizzax viloyati Baxmal tumani Sutlibuloq qishlog‘i. 2023-yil.
10. Dala yozuvlari. Jalil Qodirovich Kenjayev. Jizzax viloyati Do‘stlik tumani Manas qishlog‘i. 2023-yil.
11. Dala yozuvlari. Axmedov Yusupjon. Jizzax viloyati Zomin tumani Yettikechuv qishlog‘i. 2023-yil.
12. *Жалилов С*. Фарғона водийсининг суғорилиш тарихидан (XIX аср – XX аср бошлари). – Тошкент: Фан, 1977. – 168 б.
13. Материалы по землепользованию кочевого киргизского населения южной части Ферганской области. – Ташкент, 1915. – 139 с.
14. *Джаханов У.* Земледелие таджиков долины Соха в конце XIX начале XX в. (Историко-этнографическое исследование). – Душанбе: Дониш, 1989. – 146 с.
15. *Исоқов З.* Фарғона водийси анъанавий деҳқончилик маданияти. –Тошкент: Yangi nashr, 2011. – 143 б.
16. *Ершов Н.Н*. Сельское хозяйство таджиков Ленинабадского района Таджикской ССР перед Октябрьской революции (историко-этнографический очерк). – Сталинабад: АН Таджикской ССР, 1960. – 174 с.
17. *Кызласов Л.Р*. Археологические исследования на городище Ак-Бешим в 1953–1954 гг. / В кн.: Труды Киргизской археолого-этнографической экспедиции. Т. II. – Москва: Наука, 1959. – С. 155–242.
18. *Гамбург Б.С*. К характеристике орудий земледельцев Ферганской долины и Ташкентского оазиса конца XIX – первой четверти XX в. // В кн.: Хозяйственно-культурные традиции народов Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука, 1975. – С. 107–122.
19. Dala yozuvlari. Berdiqul Shovdanov. Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani Mog‘ol qishlog‘i. 2023-yil.
20. *Наливкин В.П*. Очерки земледелия в Наманганском уезде // Туркестанские ведомости, 1880. – № 25. – С. 81–90.

21. *Абрамзон С.М.* Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. – Фрунзе: Кыргызстан, 1990. – 480 б.
22. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumani Qizilto‘qay qishlog‘i. 2018-yil.
23. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati Baxmal tumani Jadik qishlog‘i. 2022-yil; Sirdaryo viloyati Sardoba tumani Yangiobod qishlog‘i. 2022-yil.
24. *Фриштейн Л.А*. Способы молотьбы у северных киргизов. / В кн.: Полевые исследования Института этнографии. – Москва: Наука, 1974. – С. 90–91.
25. *Атаханов Ш.* Фарғона водийси лўлилари (тарихий-этнологик тадқиқот). – Ўш: ЎшГУ, 2017. – 147 б.
26. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati Zomin tumani O‘riklisoy qishlog‘i. 2023-yil.
27. Статистический обзор Ферганской области за 1908 г.
28. *Джаманкараев Л.Б. Развитие торговли* в *Киргизии* в конце *XIX* – начале *XX* вв. – Фрунзе: Илим, 1965. – 132 с.

FORMATION AND DEVELOPMENT OF AGRICULTURE IN THE KYRGYZ OF UZBEKISTAN

Otabek A. Abduraupov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 3(79). 20-28.
[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: agriculture, dryland, pastoralist, semi-arid, natural-geographic conditions, ethno-economy, ethnos, nomadic culture, ethno-cultural environment, artificial irrigation, ethnographic group, grain crops, settlement, tillage.

The article covers the history of the emergence and formation of agricultural culture in the Kyrgyz, who lived in the territories of present – day Uzbekistan in the late XIX-early XX centuries. Historical sources and literature give factual information on the development of Agriculture in Kyrgyzstan, first as a form of lalmi (spring), and later gradually as a form of irrigation farming.

Scientific literature contains a lot of information about the emergence and development of agriculture in Kyrgyz. Most of the information in this regard indicates that the Kyrgyz have grown grains to a certain extent since ancient times, and wheat-based foods were of great importance in their diet along with meat and dairy products.

In scientific studies, two types of agriculture are distinguished: irrigated agriculture and dry (spring) agriculture. The emergence of irrigated agriculture dates back to ancient times. Irrigation farming is characterized by irrigation of cultivated fields with the help of various water structures built by these people.

It is worth noting that the ancestors of the Kyrgyz living in modern Uzbekistan and its neighboring regions have been engaged in some fields of agriculture along with animal husbandry based on the natural and geographical conditions and opportunities.

In the past, ethnic groups engaged in animal husbandry, settled or transitioned to agriculture, including the Kyrgyz living in Uzbekistan, learned to use agricultural tools used by settled farmers. In particular, they used a plow, a trowel, a hoe, a scythe, a pitchfork, a panshakha, and a wooden spade used for harvesting.

The working tools used by the Ferghana Kyrgyz in tilling the land and harvesting were almost the same as the cocktail tools of the Jizzakh and Syrdarya Kyrgyz. At the same time, these farming tools have certain regional characteristics with the way they are made and named.

Among the traditional farming tools, the most used work tool is the hoe. In different regions of Uzbekistan, farmers used several types of hoes depending on the type of work and the structure of the soil. Kyrgyz people who started farming mostly bought these farming tools from settled blacksmiths.

Also, settled Kyrgyz initially paid little attention to fertilizing the cultivated fields. At the end of the 19th century - the beginning of the 20th century, under

the influence of settled Uzbek and Tajik farmers, they began to feed the land with natural fertilizers in order to increase its fertility and productivity.

It is worth noting that during this period, the main part of the products exported by local Kyrgyz to the markets were livestock products.

So, the emergence and formation of farming culture in Kyrgyz has its own history. Historical sources and literature provide factual information about the first dry (spring) form of agriculture in Kyrgyz, and then the gradual formation of irrigated agriculture.

When the Kyrgyz settled, they learned a lot of knowledge and experience of farming from the local settled population.

References:

1. Nalivkin, V.P. (1886) *Kratkaya istorii Kokandskogo hanstva* [Short history of the Kokand Khanate]. Kazan.

2. Kun, A.L. (1877) Ocherk Kokanskogo hanstva [Ocherk Kokanskogo khanstva]. In*: Izvestiya Imperatorskogo Russkogo geograficheskogo obshchestva* [News of the Imperial Russian Geographical Society]. Vol. XII, part. Sankt-Peterburg.

3. Bezhkovich, A.S. (1972) Istoriko-etnograficheskie osobennosti kirgizskogo zemledeliya [Historical and ethnographic features of Kyrgyz agriculture]. In: *Ocherki po istorii hozyajstvo narodov Srednej Azii i Kazahstana* [Essays on the history of the economy of the peoples of Central Asia and Kazakhstan]. Leningrad. Pp. 32-70.

4. Valihanov, Ch. (1985) *Sobranie sochinenij* [Collected Works]. In 5 volumes. Vol. I. Alma-Ata: Kazahskaya sovetskaya enciklopediya.

5. Abdullaev, U.S. (2005) *Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar (XIX–XX asr boshlari)* [Inter-ethnic processes in the Fergana Valley (XIX - early XX centuries)]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

6. Gubaeva, S.S. (1991) *Naselenie Ferganskoj doliny v konce XIX – nachale XX v. (etnokulturnye processy)* [Population of the Fergana Valley in the late 19th – early 20th centuries (ethnocultural processes)]. Tashkent: Fan.

7. Ajtmanbetov, D. (1967) *Kultura kirgizskogo naroda vo vtoroj polovine XIX – nachale XX veka* [The culture of the Kyrgyz people in the second half of the 19th – early 20th centuries]. Frunze: Ilim

8. Abdullaev, U.S. (2006) *Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar (XIX– XX asr boshlari)* [Inter-ethnic processes in the Fergana Valley (XIX - early XX centuries]. The Dissertation for the Doctor of Historical Sciences. Tashkent.

9. (2023) *Dala yozuvlari*. Yigitov Azam. Jizzax viloyati Baxmal tumani Sutlibuloq qishlog‘i. [Field notes. Yigitov Azam. Sutlibulaq village, Bakhmal district, Jizzakh region].

10. (2023) *Dala yozuvlari*. Jalil Qodirovich Kenjaev. Jizzax viloyati Do‘stlik tumani Manas qishlog‘i [Field records. Jalil Kadyrovich Kenjaev. Manas village, Dostlik district, Jizzakh region].

11. (2023) Dala yozuvlari. Ahmedov Yusupjon. Jizzax viloyati Zomin tumani Yettikechuv qishlog‘i [Field notes. Akhmedov Yusupjon. Ettikechuv village, Zomin district, Jizzakh region].

12. Jalilov, S. (1977) *Farg‘ona vodiysining sug‘orilish tarixidan (XIX asr – XX asr boshlari)* [From the history of irrigation of Fergana valley (XIX century - beginning of XX century)]. Tashkent: Fan.

13. (1915) Materialy po zemlepolzovaniyu kochevogo kirgizskogo poseleniya yuzhnoj chasti Ferganskoj oblasti [Materials on land use of the nomadic Kyrgyz settlement in the southern part of the Fergana region]. Tashkent.

14. Dzhahanov, U. (1989) *Zemledelie tadzhikov doliny Soha v konce XIX – nachale XX v. (Istoriko-etnograficheskoe issledovanie)* [Agriculture of the Tajiks of the Sokha Valley in the late 19th and early 20th centuries (Historical and ethnographic study)]. Dushanbe: Donish.

15. Isoqov, Z. (2011) Farg‘ona vodiysi an’anaviy dehqonchilik madaniyati [Ferghana Valley traditional farming culture]. Tashkent: Yangi nashr.

16. Ershov, N.N. (1960) *Selskoe hozyajstvo tadzhikov Leninabadskogo rajona Tadzhikskoj SSR pered Oktyabrskoj revolyucii (istoriko-etnograficheskij ocherk)* [Agriculture of Tajiks of Leninabad district of Tajik SSR before the October Revolution (historical and ethnographic essay)]. Stalinabad: AN Tadzhikskoj SSR.

17. Kyzlasov, L.R. (1959) Arheologicheskie issledovaniya na gorodishche Ak-Beshim v 1953–1954 gg. [Archaeological research at the Ak-Beshim settlement in 1953-1954]. In: *Trudy Kirgizskoj arheologo-etnograficheskoj ekspedicii* [Works of the Kyrgyz archaeological and ethnographic expedition]. Vol. II. Moscow: Nauka. Pp. 155-242.

18. Gamburg, B.S. (1975) K harkteristike orudij zemledelcev Ferganskoj doliny i Tashkentskogo oazisa konca XIX – pervoj chetverti XX v. [On the characteristics of agricultural tools of the Fergana Valley and Tashkent oasis of the late 19th – first quarter of the 20th century]. In: *Hozyajstvenno-kulturnye tradicii narodov Srednej Azii i Kazahstana* [Economic and cultural traditions of the peoples of Central Asia and Kazakhstan]. Moscow: Nauka. Pp. 107-122.

19. (2023) *Dala yozuvlari*. Berdiqul Shovdanov. Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani Mog‘ol qishlog‘i [Field notes. Berdigul Shovdanov. Mongol village, Yangikurgan district, Namangan region].

20. Nalivkin, V.P. (1880) *Ocherki zemledeliya v Namanganskom uezde* [Essays on agriculture in Namangan district]. Turkestanskie vedomosti. No 25. Pp. 81-90.

21. Abramzon, S.M. (1990) *Kirgizy i ih etnogeneticheskie i istoriko-kulturnye svyazi* [Kyrgyz people and their ethnogenetic and historical-cultural ties]. Frunze: Kyrgyzstan.

22. (2018) *Dala yozuvlari*. Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumani Qizilto‘qay qishlog‘i [Field records. Kyziltokai village, Kurgantepa district, Andijan region].

23. (2022) *Dala yozuvlari*. Jizzax viloyati Baxmal tumani Jadik qishlog‘i. [Field notes. Jadik village, Bakhmal district, Jizzakh region]; Sirdaryo viloyati Sardoba tumani Yangiobod qishlog‘i [Yangiabad village, Sardoba district, Syrdarya region].

24. Frishtejn, L.A. (1974) Sposoby molotby u severnyh kirgizov [Methods of threshing among the northern Kirghiz]. In: *Polevye issledovaniya Instituta etnografii* [Field research of the Institute of Ethnography]. Moscow: Nauka. Pp. 90-91.

25. Ataxanov, Sh. (2017) *Farg‘ona vodiysi lo‘lilari* (tarixiy-etnologik tadqiqot) [Gypsies of the Ferghana Valley (historical-ethnological research)]. Osh: OshGU.

26. (2023) *Dala yozuvlari*. Jizzax viloyati Zomin tumani O‘riklisoy qishlog‘i [Field notes. Oriklisoi village, Zomin district, Jizzakh region].

27. (1908) *Statisticheskij obzor Ferganskoj oblasti za 1908 g*. [Statistical review of the Fergana region for 1908].

28. Dzhamankaraev, L.B. (1965) *Razvitie torgovli v Kirgizii v konce XIX – nachale XX vv.* [Development of trade in Kyrgyzstan in the late 19th – early 20th centuries]. Frunze: Ilim.

Muallif haqida ma’lumot:

ABDURAUPOV Otabek Azimjonovich – Andijon davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi. E-mail: uztarotabek@gmail.com